

“DEVONI HABIB” QO’LYOZMASINING TAVSIFI

Nosirova Iroda Jamoliddin qizi

*Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti magistratura bosqichi
talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada qo’lyozma asarlarni tavsiflash, tavsif jarayonida qaysi omillarga ahamiyat berilishi, qaysi jihatlar yoritilishi kerakligi haqida va “Devoni Habib” qo’lyozmasi haqida ma’lumot berilgan.*

Kalit so’z va iboralar: *tavsif, matn, qo’lyozma, manba, asar, xat, qayd qilish.*

Аннотация: *В данной статье представлено описание рукописных произведений, указано, на какие факторы следует обращать внимание в процессе описания, какие аспекты необходимо освещать, а также приведены сведения о рукописи «Девони Хабиб».*

Ключевые слова и словосочетания: *описание, текст, рукопись, источник, произведение, почерк, фиксация.*

Annotation: This article provides a description of manuscript works, highlighting the factors to be considered in the process of description, the aspects that should be covered, as well as information about the manuscript “Devoni Habib.”

Keywords and phrases: description, text, manuscript, source, work, handwriting, recording.

Tavsif - qo’lyozma manbaning muhim tekstologik belgilarini qog’ozga qayd etishdir. Qo’lyozma manbani o’rganish ishi uni tavsiflashdan boshlanadi. Yozma manbani tavsiflash mutaxassisidan chuqur bilim va malaka talab qiladi. Mutaxassis manbaning tavsif uchun kerakli bo’lgan muhim qirralarini ajrata olmog’i va uni ixcham, lo’nda qilib yoritib bermagi kerak. Barcha tavsiflar kataloglarga jamlanadi. Katalog muayyan qo’lyozmalar fondida saqlanayotgan qo’lyozma yoki toshbosma manbalar bo’yicha tuziladi. Tavsif uch xil bo’ladi: qisqacha tavsif; o’rtacha tavsif; monografik tavsif. Qisqacha tavsifda qo’lyozmaning muhim, bir qarashda e’tiborni o’ziga tortadigan, ilkin bilim uchun muhim bo’lgan jihatlari yoritiladi. Bular: qo’lyozmaning saqlanish raqami, muallifning ismi-sharifi, kitob va matnning bichimi, ko’chirilgan yili va kotibi singarilardir. Agar ulardan birortasi noaniq bo’lsa, tavsifda bu ham ko’rsatib qo’yiladi. O’rtacha tavsif bunga qaraganda kengroq bo’ladi.



Yuqoridagilardan tashqari, matnning ichiga ham biroz kirib boriladi. Asarning boshlanishi va oxiri, xat turi singarilar ham qoʻshiladi.

Monografik tavsif baridan afzal. U keng qamrovli boʻladi. Ayrim monografik tavsiflar yirik ilmiy maqola qatorida yuradi.

Varaqa bitilgan matnni tavsiflash. Qoʻlyozma fondlarda bir varaq shaklidagi (qogʻozning oʻng yuziga yoki har ikki yogʻiga bitilgan) matnlar ham koʻp. Muhimi shundaki, ularning har qaysisi fondda alohida dokument (hujjat) sifatida oʻz koʻrsatkich raqami bilan saqlanadi. Shunga koʻra, ularga tavsif ham alohida-alohida tuziladi.

Baʼzan saqlanib qolgan varaq yirik bir asarning uzindisi (fragmenti) boʻlib chiqadi. Bunday holda varaqning saqlanish raqami (koʻrsatkichi), qogʻozning saqlanish holati, bichimi, xat turi bayon qilinadi. Aniqlashning imkoni boʻlsa, qaysi asarning

uzindisi ekanligini yozib ketgan maʼqul. Koʻpincha rasmiy hujjatlar bir varaqa bitilgan boʻladi. Varaqdagi hujjatni tavsiflashda uning saqlanish raqami (koʻrsatkichi), qogʻozning saqlanganlik holati, bichimi koʻrsatilgach, soʻngra matnga oʻtiladi. Bunda uning xat turi, shoshilinch yoki eʼtibor bilan koʻchirilganligi, hujjatga urilgan muhr va tamgʻalar haqidagi maʼlumotlar beriladi. Tavsifda, imkon boʻlsa, hujjatning tuzilgan sanasini ham koʻrsatgan maʼqul.

Oʻrama qogʻozga bitilgan matnni tavsiflash uchun boshlab qogʻozining bichimi (uzunligi va eni), bir-biriga ulab yelimlanganligi, saqlanganlik holati taʼriflanib, soʻng matn oʻlchoviga oʻtiladi. Yozuv turi, xat rangi va matn necha qatordan iborat ekanligi taʼkidlanadi. Tamgʻa yoki muhrlarga alohida urgʻu qaratiladi. Toʻliq saqlangan boʻlsa, boshlanishi va soʻnggi xotima jumalari soʻzma-soʻz beriladi. Yozilgan boʻlsa, koʻchirilgan sanasi ham koʻrsatiladi. Oʻrama qogʻozga bitilgan yorliqlar ham ana shu usulda tavsiflanadi. Faqatgina ularni tavsiflaganda ichidagi tarixiy maʼlumotlar, muhim dalillar ham keltirilgani maʼqul.

Qoʻlyozma kitobni tavsiflash. Kitobning muqovasi (oʻziniki yoki keyinchalik qayta muqovalanganligi), rangi, oʻng va ters toqalaridagi tamgʻalar, tamgʻa ichidagi yozuvi koʻrsatiladi. Soʻng kitobning ichiga oʻtiladi. Qogʻozining turi, uning bichimi, saqlanganlik holati qayd etilgach, ichidagi matn tavsifiga kirishiladi. Boshlab kitobning badiiy bezaklariga (unvoni, jadvalga oʻralganligi va b.) toʻxtalgan maʼqul. Soʻng xat turi, rangi, matn sarlavhalarining berilishi bayon qilinadi. Qisqacha tavsif asarning koʻchirilish tarixi, kotibning ismi-sharifini qayd etish bilan tugaydi. Majmua va kulliyotlarni tavsiflash. Majmua va kulliyotlar yirik kitoblar boʻlgani uchun ularning tarkibidagi asarlar tavsifda birma-bir koʻrsatiladi. Koʻpincha uning tarkibidagi u yoki bu asar yulib olinib,



alohida o'rganiladi. Asar nashrga tayyorlanganda ham uning ichidan ajratib olinadi. Tavsifda bunga alohida e'tibor berilmagi kerak. Unda qo'lyozma kitob necha varaqdan iborat ekani, o'rganilayotgan asar qo'lyozmaning qaysi varaqlaridan o'rin olgani, majmua tarkibida yana qanday asarlar mavjud ekanligi qayd etiladi. Imkoni bo'lsa, kitobga kirgan har bir asarni keltirib, uning betlarini ham ko'rsatgan ma'qul.

Tavsifda yana qo'lyozmani ko'chirgan kotib, u kimning buyrug'i asosida ko'chirgani, saqlangan bo'lsa, joyi va yili, kitobning badiiy bezaklari, xatining chiroyli yo oddiyligigacha, tartibi bilan, aniq aytiladi. Odatda, majmua yoki kulliyotlardagi yirik asarlarning oxiriga bir nechta o'ringa tarix bitiladi. Qo'lyozma bir necha yil davomida ko'chirilgan bo'lsa, tarixning sanalari ham bir-biridan farq qiladi. Tavsifda bu narsa ham aniq ko'rsatilgani yaxshi.

Ana endi, “Devoni Habib”ning tavsifiga to'xtaladigan bo'lsak, kitob muqovasi sharqona, qattiq karton qog'oz, moshrang. Matn fabrika qog'oziga, qora siyoh bilan bitilgan. Sarlavhalar esa qizil siyohda yozilgan. Asar nasta'liqda bitilgan bo'lib, har sahifada 2 ustun, 21 yo'l mavjud. Poygirlar bor. Har bir she'r xattot tomonidan raqamlangan. Asar 59 varaqdan iborat. Qog'oz hajmi 26x18.

Ushbu qo'lyozmada Habibning 180 ta g'azali, 22 ta muxammasi, 5 ta musaddasi, 4 ta qasidasi va bir Navro'znomasi o'rin olgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Q.Sodiqov. Matnshunoslik va manbashunoslik asoslari. Toshkent-2017.
2. Habib. “Devoni Habib” qo'lyozmasi.

